TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.*
*I-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA



O‘RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA’SIRI ........ 20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi
Jalg‘ashova Nazira Umbet qizi
MINTAQADA SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 26
Mamedov Ko‘palboy Masharipovich
TA’LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA’MINLASH ........ 30
Umarov Ravshanjon Gafurovich
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI ........ 36
Mamurov Doniyor Eldorovich
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA USULLARI ........ 43
Ro‘zimov Doniyor Soporboy o‘g‘li
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH ........ 49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ........ 56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI ........ 64
Z.Sh. Matniyozova
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING ........ 69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS ........ 76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI: O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL ........ 83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS ........ 90
Avazov Azizbek Ashurali o‘g‘li
“YANGI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI ........ 96
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
BARQAROR YASHIL INVESTITSIYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O‘ZBEKISTON MISOLIDA ........ 101
Zilola Kazakova
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGINI KOBB–DUGLAS MODELI YORDAMIDA BAHOLASH ........ 113
Turayev Baxrom Ergashevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"MAHALLA BANKIRI" INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO'G'INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI ..... 120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o'g'li

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA) ..... 127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI ..... 132
Shohujayeva Zebo Safoyevna
Xolov Javlonbek Davronovich

УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ..... 138
Эргашева Шахло Тургуновна

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ..... 146
Маннапова Раъно Аброровна

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO'LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: "3M-PLATFORMA" VA "SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM" KONSEPSIYALARI ..... 154
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li

RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI ..... 169
Yusupov Muxiddin Soatovich
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o'g'li

OLIY TA'LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ..... 177
Abdullayev Farhod Ozodovich

"YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI ..... 180
Jamshidbek Bobojonov

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI ..... 184
Radjabova Mavluda Ergash qizi

STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE ..... 189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI ..... 195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich

KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI ..... 207
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich

INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE "TECHNOPARK" ENTERPRISE ..... 213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY ........ 218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH ........ 224
U.U.Nurullayev
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI ........ 230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI ........ 240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEXANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI ........ 246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ ........ 250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI ........ 267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS ........ 275
Imomov Inomiddin
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI ........ 281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI ........ 292
Djumonov Dilshod Safarolievich
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI ........ 302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI ........ 314
Sadikova Dildora Abdulla qizi
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ........ 321
Baxadir Adilchayev
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI ........ 327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANK OPERATSIYALARI BO‘YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIY VA USLUBIY TAHLILI ........ 331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ ........ 341
Гофурова Шахрибону Комол қизи
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY ........ 349
Sarvinoz Asamova
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O‘SISHNI MANZILLI RAG‘BATLANTIRISH ........ 359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YO‘LLARI BO‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI ........ 368
Samiyev Mirkamol Amriddin o‘g‘li
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ........ 372
Матчанов Умирзак Сейтжанович
O‘ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov
YASHIL INVESTITSIYALARNING HUQUQIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 389
Temirova Nozima Shuhrat qizi
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLILNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA ........ 395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH ........ 403
Rashidov Zuhriddin Sanjar o‘g‘li
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi
HUDUD IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRINI BAHOLASH ........ 412
Sapayev Sindor Qadamboy o‘g‘li

# HUDUD IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH



**Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li**
**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi o'rinbosari**
**E-mail: sindor.sapaev@urdu.uz**
**ORCID: 0009-0007-1560-624X**

**Annotatsiya.** Hudud iqtisodiy tizimida innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ta'sirini ekonometrik baholash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi Global innovatsion indeks (GII) reytingi, hududlar kesimidagi yalpi hududiy mahsulot (YaHM) o'sish sur'atlari va innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy jihatdan baholashdan iborat. Korrelyatsion-regression tahlil asosida ko'p omilli chiziqli model ishlab chiqilgan. Natijalar innovatsion infratuzilma va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli musbat bog'liqlik ($r \approx 0{,}78$; $R^2 \approx 0{,}64$) mavjudligini tasdiqladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro va milliy ko'rsatkichlarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks ekonometrik yondashuvning taklif etilganligi bilan izohlanadi. Hududlararo innovatsion tafovutlarni qisqartirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** hudud iqtisodiy tizimi, innovatsion infratuzilma, barqaror rivojlanish, ekonometrik tahlil, Global innovatsion indeks, yalpi hududiy mahsulot, regressiya modeli.

**Abstract.** The econometric assessment of the impact of innovation infrastructure on sustainable development within the regional economic system is examined. The study aims to quantitatively assess the relationship between the Global Innovation Index (GII) ranking, regional gross regional product (GRP) growth rates, and innovation infrastructure indicators. A multifactor linear model is developed using correlation and regression analysis. The results confirm a statistically significant positive relationship between innovation infrastructure and regional economic growth ($r \approx 0.78$; $R^2 \approx 0.64$). The scientific novelty of the study lies in the proposed comprehensive econometric approach that integrates international and national indicators. Scientific and practical recommendations for reducing interregional disparities in innovation development are developed.

**Keywords:** regional economic system, innovation infrastructure, sustainable development, econometric analysis, Global Innovation Index, gross regional product, regression model.

**Аннотация.** Исследованы вопросы эконометрической оценки влияния инновационной инфраструктуры на устойчивое развитие региональной экономической системы. Цель исследования заключается в количественной оценке взаимосвязи между позицией в Глобальном инновационном индексе (GII), темпами роста валового регионального продукта (ВРП) и показателями инновационной инфраструктуры. На основе корреляционно-регрессионного анализа построена многофакторная линейная модель. Результаты подтвердили наличие статистически значимой положительной связи между инновационной инфраструктурой и региональным экономическим ростом ($r \approx 0{,}78$; $R^2 \approx 0{,}64$). Научная новизна исследования заключается в предложении комплексного эконометрического подхода, объединяющего международные и национальные показатели. Разработаны научно-практические рекомендации по сокращению межрегиональных различий в инновационном развитии.

**Ключевые слова:** региональная экономическая система, инновационная инфраструктура, устойчивое развитие, эконометрический анализ, Глобальный инновационный индекс, валовой региональный продукт, регрессионная модель.

## KIRISH

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida innovatsion infratuzilma nafaqat texnologik yangilanish, balki uzoq muddatli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [4]. Hudud iqtisodiy tizimida innovatsion infratuzilmaning (texnoparklar, IT-xablar, biznes-inkubatorlar, ilmiy-texnologik markazlar) mavjudligi mintaqaning raqobatbardoshligini, ish o'rinlarini yaratish salohiyatini hamda investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichga aylandi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan e'lon qilingan Global innovatsion indeks (GII) 2025 hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 139 ta mamlakat orasida 79-o'rinni egallab, TOP-80 talikka kirdi va Markaziy hamda Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston va Erondan keyin 3-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich so'nggi uch yil ichida mamlakatning innovatsion salohiyati sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, milliy darajadagi bunday yutuqlarning hududlar darajasida qanchalik mutanosib namoyon bo'layotganini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy tizimi; predmeti — innovatsion infratuzilma bilan hududiy barqaror rivojlanish o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar [1]. Maqolaning maqsadi — hudud iqtisodiy tizimida innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida miqdoriy baholash hamda tegishli xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: GII reytingi dinamikasini tahlil qilish; hududlar kesimida YaHM o'sish sur'atlarini qiyoslash; innovatsion infratuzilma bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni regressiya modeli asosida baholash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion infratuzilma va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida keng yoritilgan bo'lib, ularda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va inson kapitaliga investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslab berilgan. WIPO metodologiyasida esa innovatsion salohiyat kirim (institutlar, inson kapitali, infratuzilma) va chiqim (bilim va texnologiya natijalari) bloklari orqali baholanadi.[1]

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida sanoat diversifikatsiyasi, transport-logistika infratuzilmasi va malakali mehnat resurslari ko'rsatib o'tilgan. Raqamli va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish masalalari esa asosan tashkiliy-huquqiy nuqtayi nazardan, jumladan, davlat dasturlari doirasida tadqiq etilgan.[2]

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlardan farqli o'laroq, ushbu maqolada innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari (GII kabi xalqaro indekslar hamda IT-rezidentlar soni va startap faolligi kabi milliy proksi ko'rsatkichlar) bilan hudud darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalar (YaHM o'sish sur'ati) o'rtasidagi bog'liqlik miqdoriy-ekonometrik model asosida o'lchanadi. Mahalliy adabiyotlarda bunday yondashuvni yanada rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi ushbu maqolaning o'ziga xosligi va dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda WIPO Global innovatsion indeksi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining hududlar kesimidagi YaHM ma'lumotlari (2023–2025-yillar) hamda IT Park Uzbekistan rasmiy statistikasidan[3] foydalanildi. Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: birinchidan, GII reytingi dinamikasi vaqt qatorlari usulida tahlil qilindi; ikkinchidan, hududlar kesimida YaHM o'sish sur'atlari qiyosiy taqqoslash usulida o'rganildi; uchinchidan, innovatsion infratuzilma darajasi (proksi ko'rsatkich sifatida IT-rezidentlar soni va IT-eksport hajmi olindi) bilan YaHM o'sish sur'ati o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi; to'rtinchidan, ko'p omilli chiziqli regressiya modeli qurilib, uning statistik ahamiyatliligi baholandi.

Regressiya modeli quyidagi ko'rinishda ifodalandi:

$$G_i = \alpha_0 + \alpha_1 \cdot II_i + \alpha_2 \cdot INV_i + \alpha_3 \cdot K_i + \mu_i$$

Bunda:

Gi — i-hududning YaHM o'sish sur'ati (%);

IIi — hududdagi innovatsion infratuzilma darajasi indeksi (IT-rezidentlar soni va startap faolligi asosida shakllantirilgan);

---

1 World Intellectual Property Organization (WIPO). Global Innovation Index 2025: Innovation crossroads. – Geneva: WIPO, 2025. – 250 p.
2 https://lex.uz
3 IT Park Uzbekistan. Rasmiy statistik ma'lumotlar, 2023–2025-yy.

INVi — hududning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi;
Ki — malakali kadrlar salohiyati ko'rsatkichi;
μi — tasodifiy xatolik hadi.

Model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli (OLS) yordamida baholandi, ko'p kollinearlik VIF mezoni asosida tekshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

WIPO GII hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning global innovatsion reytingdagi o'rni 2023-yildagi 93-o'rindan 2024-yilda 82-o'ringa, 2025-yilda esa 79-o'ringa yaxshilandi (1-rasm). Bu barqaror va izchil ijobiy dinamika mamlakat miqyosida innovatsion infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarning samara bera boshlaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ta'lim, raqamli infratuzilma va biznes muhitini rivojlantirishga yo'naltirilgan sarmoyalar hisobiga O'zbekiston GII metodologiyasida to'rt yil ketma-ket "kutilganidan yuqori natijachi" maqomini saqlab qolmoqda, bu esa innovatsion salohiyatdan foydalanish samaradorligining barqarorligini ko'rsatadi.




**1-rasm. O'zbekistonning Global innovatsion indeks (GII) reytingidagi o'rni, 2023–2025-yillar[4]**

Milliy darajadagi yalpi ichki mahsulot 2025-yil yakuniga ko'ra joriy narxlarda 1 849,7 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,7 foizga o'sgan.[5] Hududlar kesimida esa ushbu o'sish sur'atlarida muayyan tafovutlar kuzatiladi. Tahlilni chuqurlashtirish maqsadida barcha 14 ta hudud bo'yicha YaHM o'sish sur'atlari kamayish tartibida 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
Hududlar kesimida YaHM o'sish sur'ati, 2025-yil yakunlari[6]

| T/r | Hudud | YaHM o'sish sur'ati, % | Reytingdagi o'rni |
|---|---|---|---|
| 1 | Toshkent shahri | 11,3 | 1 |
| 2 | Sirdaryo viloyati | 9,8 | 2 |
| 3 | Namangan viloyati | 8,2 | 3 |
| 4 | Jizzax viloyati | 8,2 | 3 |
| 5 | Farg'ona viloyati | 8,1 | 5 |
| 6 | Samarqand viloyati | 8,0 | 6 |
| **7** | **Xorazm viloyati** | **7,9** | **7** |

4 WIPO Global Innovation Index hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
5 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari, 2023–2025-yy. [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz
6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

| T/r | Hudud | YaHM o'sish sur'ati, % | Reytingdagi o'rni |
|---|---|---|---|
| 8 | Navoiy viloyati | 7,7 | 8 |
| 9 | Toshkent viloyati | 7,2 | 9 |
| 10 | Buxoro viloyati | 7,2 | 9 |
| 11 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 7,2 | 9 |
| 12 | Andijon viloyati | 6,8 | 12 |
| 13 | Qashqadaryo viloyati | 6,8 | 12 |
| 14 | Surxondaryo viloyati | 6,6 | 14 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'sish sur'atlari bo'yicha yetakchi uch hudud (Toshkent shahri, Sirdaryo, Namangan/Jizzax) o'rtacha 9,8 foizni tashkil etsa, ro'yxatning keyingi uch pog'onasidagi hududlarda (Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo) ushbu ko'rsatkich o'rtacha 6,7 foizni tashkil etadi. Demak, ushbu hududlar o'rtasidagi farq deyarli 3,1 foiz punktni tashkil etib, bu hududlararo rivojlanish sur'atlarida muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Quyidagi diagrammada innovatsion infratuzilmasi nisbatan rivojlangan ikkita yetakchi hudud alohida rangda ajratib ko'rsatilgan(2-rasm).




**2-rasm. Hududlar kesimida YaHM o'sish sur'ati, 2025-yil yakunlari**[7]

Xorazm viloyati misolida chuqurroq tahlil shuni ko'rsatadiki, viloyat YaHM hajmi 62 987,5 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 7,9 foizni tashkil etib, umumiy jadval bo'yicha 14 ta hudud orasida 7-o'rinni egallagan. Mazkur ko'rsatkich respublika o'rtachasiga (7,7 %) yaqin bo'lib, yetakchi ikki hudud (Toshkent shahri va Sirdaryo viloyati) ko'rsatkichlaridan muayyan farqqa ega. Bu holatni nafaqat innovatsion infratuzilma, balki tarmoq tarkibidagi farqlar bilan ham izohlash mumkin: Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida iqtisodiy o'sishning asosiy qismi xizmatlar (jumladan, IT-xizmatlar) va sanoat tarmoqlari hisobiga ta'minlangan bo'lsa, Xorazm viloyati iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va an'anaviy sanoat tarmoqlari muhim o'rin tutadi.

Innovatsion infratuzilma darajasi (IT-rezidentlar soni, startap faolligi) bilan hududlar YaHM o'sish sur'ati o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari kuchli musbat bog'liqlikni ko'rsatdi (r ≈ 0,78) [3]. Bu shuni anglatadiki, innovatsion infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lsa, hududning iqtisodiy o'sish sur'ati shunchalik yuqori bo'ladi. Qurilgan ko'p omilli regressiya modeli natijalari quyidagicha:

1. IIi (innovatsion infratuzilma indeksi) koeffitsiyenti α1 ≈ 0,35 bo'lib, uning 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan noldan mazmunli farq qilishi aniqlandi. Bu innovatsion infratuzilma indeksidagi 1 foizlik o'sish, boshqa omillar o'zgarmas holda qolganda, hudud YaHM o'sish sur'atini o'rtacha 0,3–0,4 foiz punktga oshirishi mumkinligini bildiradi;

7 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2. INVi (asosiy kapitalga investitsiyalar) koeffitsiyenti α2 ≈ 0,22 bo‘lib, ijobiy, ammo IIi ko‘rsatkichiga nisbatan kuchsizroq ta’sirni namoyon etdi. Bu esa innovatsion infratuzilmaning “sifat” jihati (kadrlar, texnologik tayyorgarlik) sof investitsiya hajmiga nisbatan muhimroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi;

3. Ki (malakali kadrlar salohiyati) koeffitsiyenti α3 ≈ 0,18 bo‘lib, ijobiy ishoraga ega, biroq statistik ahamiyatlilik darajasi chegaraviy (p ≈ 0,08) bo‘lib chiqdi. Bu holat tanlanma hajmining cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin;

4. Modelning umumiy sifat ko‘rsatkichlari: $R^2 \approx 0,64$ (tushuntirilgan dispersiya ulushi), tuzatilgan $R^2 \approx 0,58$, F-statistika esa 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida mazmunli natijani ko‘rsatdi. Ko‘p kollinearlik muammosini tekshirish uchun o‘tkazilgan VIF (dispersiya kengayish koeffitsiyenti) tahlili mustaqil o‘zgaruvchilar orasida jiddiy kollinearlik mavjud emasligini tasdiqladi (barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha VIF < 3).

Shu bilan birga, tahlil natijalari innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ta’siri nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’ati, balki ish o‘rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirish orqali ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, IT Park rezidentlari faoliyati orqali yaratilgan ish o‘rinlari soni va eksport hajmining o‘sishi mintaqalarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida baholandi [3]. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, IT-eksport hajmidagi har 10 foizlik o‘sish hudud darajasida qo‘shimcha ish o‘rinlari sonini 6–8 foizga oshirish salohiyatiga ega, bu esa innovatsion infratuzilmaning ko‘paytiruvchi (multiplikator) ta’sirini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, innovatsion infratuzilma bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lishi mumkin: bir tomondan, rivojlangan innovatsion infratuzilma iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar (masalan, Toshkent shahri) innovatsion infratuzilmaga ko‘proq resurs va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli olingan korrelyatsiya va regressiya natijalarini ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli assotsiatsiya sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ta’sirini baholashda xalqaro (GII) va milliy (YaHM, hudud statistikasi) ko‘rsatkichlarni birlashtirgan kompleks ekonometrik yondashuv taklif etildi; ikkinchidan, innovatsion infratuzilma darajasi bilan hudud YaHM o‘sish sur’ati o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni tavsiflovchi regressiya modeli ishlab chiqildi; uchinchidan, hudud iqtisodiy tizimida innovatsion infratuzilmani barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirishning institutsional mexanizmlari asoslab berildi.

**Tadqiqot cheklovlari.** Qo‘llanilgan innovatsion infratuzilma darajasi indeksi proksi ko‘rsatkichlar (IT-rezidentlar soni, startap faolligi) asosida shakllantirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlarni kelgusida innovatsion infratuzilmaning boshqa jihatlari (masalan, ilmiy-tadqiqot faoliyati intensivligi) bilan boyitish tadqiqot natijalarining qamrovini yanada kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, hududlar kesimidagi ma’lumotlarning vaqt qatorlarini kelgusida yanada kengaytirish regressiya modeli natijalarini uzoqroq vaqt oralig‘idagi panel ma’lumotlar asosida aniqlashtirish va ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan ekonometrik tahlil hudud iqtisodiy tizimida innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga sezilarli va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. O‘zbekistonning Global innovatsion indeksdagi o‘rnining izchil yaxshilanishi milliy miqyosda innovatsion salohiyat oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasidagi rivojlanish sur’atlarida muayyan tafovutlar mavjud bo‘lib, yetakchi va keyingi pog‘onalardagi hududlar o‘rtasidagi YaHM o‘sish sur’ati farqi 3,1 foiz punktni tashkil etadi. Innovatsion infratuzilmani hudud iqtisodiy tizimida mutanosib va barqaror rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini ta’minlashning ham muhim sharti hisoblanadi.

Aniqlangan jihatlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hudud darajasida innovatsion infratuzilma rivojlanishini muntazam kuzatib borish uchun mahalliy “innovatsion rivojlanish indeksi”ni joriy etish;

2. Innovatsion infratuzilmani yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud bo‘lgan hududlarga (jumladan, Xorazm viloyatiga) yo‘naltirilgan maqsadli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish;

3. Innovatsion infratuzilma loyihalarini baholashda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik mezonlarini ham hisobga oluvchi kompleks baholash tizimini joriy etish;

4. Hududlar o‘rtasida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish tajribasini almashish uchun muntazam platformalar (forum, konferensiya) tashkil etish;

5. Innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ta’sirini yillik monitoring qilish uchun Milliy statistika qo‘mitasi bazasida alohida statistik hisobot shaklini joriy etish.

Taklif etilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish hududlararo innovatsion rivojlanishdagi tafovutlarni qisqartirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2025: Innovation Crossroads.* – Geneva: WIPO, 2025. – 250 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari, 2023–2025-yillar* [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz.
3. IT Park Uzbekistan. *Rasmiy statistik ma'lumotlar, 2023–2025-yillar* [Elektron resurs]. – URL: https://it-park.uz.
4. United Nations Development Programme (UNDP). *Sustainable Development Reports on Uzbekistan, 2018–2021.* – Tashkent: UNDP, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish to'g'risida"gi PF-25-son Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-8053023
6. Infocom.uz, Kun.uz axborot agentliklarining Global innovatsion indeks va hududiy iqtisodiy o'sishga oid materiallari, 2025–2026-yillar [Elektron resurs].
7. Guo P., Hu X., Zhao S., Li M. Xitoyning 31 hududi, 1993–2017-yillar panel ma'lumotlari. Infratuzilma investitsiyalari o'sishga innovatsion salohiyat orqali bilvosita ham ta'sir qiladi // *Economic Research-Ekonomska Istraživanja.* – 2023. – Vol. 36. – No. 2.
8. Feng C., Gan Q., Li H. Yangzi deltasidagi 41 shahar. Yangi (raqamli) infratuzilma hududlararo tafovutni qisqartiradi, ta'siri ostona (threshold) effektiga ega. – 2024.
9. Kudryakov R. I. Innovatsion infratuzilma elementlarining ierarxiyasi va barqaror rivojlanishga ta'sirni baholash metodikasi // *Economic Consultant.* – 2024. – № 4.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz